



O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TEXNOLOGIK INNOVATSIYALARNING FAOLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Mamayev Bahodirjon Nosirovich	<i>AIQI, Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrası mudiri, i.f.n., dotsent</i> <i>E-mail: bnmamayev@umail.uz</i>
Uraimova Mehriniso	<i>AIQI, Iqtisodiyot fakulteti 3-bosqich 102-guruh talabasi</i>
Jaxbarova Sarvinoz	<i>AIQI, Iqtisodiyot fakulteti 3-bosqich 102-guruh talabasi</i>
Annotatsiya	Maqolada texnologik innovatsiyalar sohasidagi joriy tendentsiyalar va istiqbollarni o'rganadi, raqamli iqtisodiyotning turli tarmoqlarga ta'sirini baholaydi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan strategiyalar samaradorligini tahlil qiladi, innovatsion rivojlanishda kichik va o'rta korxonalar muhimligini ta'kidlaydi. Iqtisodiy o'sishning innovatsion modeliga o'tishning milliy xo'jaliklar rivojlanishiga ta'siri asoslangan, O'zbekistonda innovatsion rivojlanishga o'tish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yoritib berilgan, innnovatsiyalarni joriy etishda mavjud hududiy tafovutlar va ularni hal etish yo'llari asoslangan.
Kalit so'zlar:	iqtisodiyot, innovatsiya, zamonaviy, ishlab chiqarish, texnologiya, strategiya, raqamli iqtisodiyot, korxona, jarayon, biznes, hudud, milliy xo'jalik, jamiyat, davlat, globallashuv, moliyaviy resurs, mehnat resurslari.

Kirish

Jahonning rivojlangan mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sishning innovatsion modeliga o'tish mavjud tabiiy-iqtisodiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Innovatsion rivojlanishga ustuvorlik berish uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish, ko'plab global muammolarni hal etish va yuqori ijtimoiy samaraga ega bo'lishning asosiy omili hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi.

Bugungi kunda milliy xo'jaliklarning innovatsion rivojlanish strategiyasiga o'tishini ob'ektiv zaruriyat qilib qo'yayotgan ikkita omilni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, globallashuv va global raqobatning kuchayishi. Bu omilning ta'sirida firmalarning yangi bozorlarga chiqish mud- datlari qisqarmoqda, kompaniyalar va mamlakatlarning innovatsion harakatlari jadallashmoqda. Jahon ilmiy-texnika makonida

yangi global ishtirokchilarning paydo bo'lishi innovatsiya jarayonlariga tobora faol ta'sir ko'rsatmoqda, xalqaro texnologiyalar almashinuvi, transmilliy kompaniyalar, xodimlar mobilligining roli kuchaymoqda. Ayni vaqtda global muammolar echimining innovatsiya lashuv darajasi ortib bormoqda.

Ikkinchidan, innovatsiyalarning murakkablashuvi. Innovatsiyalarning tarmoqlararo xarakterga ega ekanligi unga kiritilayotgan investitsiyalarning tobora qimmatlashuviga va tavakkalchilik darajasining oshishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda alohida olingan firma innovatsiya bilan yakka shug'ullanishi, barcha zaruriy tadqiqotlarni moliyalashtirishi, bozor to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilishi ancha murakkab. Ayni vaqtda innovatsiya faoliyatini birgalikda olib borish mu- staqillikni saqlab qolish, o'z manfaatlariga zarar keltirmaslik nuqtai nazaridan murakkab hisoblanadi.

XX asrning so'nggi choragidan boshlab jahon iqtisodiyotidagi radikal tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlagan muhim omillardan biri innovatsiyalar iqtisodiy rolining o'sganligi hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimizda innovatsiyaga asoslangan iqtisodiyot shakllantirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning intellektuallashuv darajasini va yalpi ichki mahsulotning fan sig'imini oshirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Jamiyat va davlat hayotining barcha sohaları shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi etakchilari qatoriga kirish yo'lida tez va sifatli ilgarilashini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi.

Shuni hisobga olgan holda so'nggi yillarda mamlakatimizda innovatsion salohiyatdan samarali foydalanish, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2018 yil 21 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019- 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-son farmoni imzolandi. Farmonda ishlab chiqarishni modernizatsiya, diversifikatsiya qilish, uning hajmini oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar turlarini kengaytirish borasidagi ishlar lozim darajada olib borilmayotganligi, bu borada ko'plab ko'rsatkichlarning mavjud emasligi va ishlar samarali muvofiqlashtirilmaganligi sababli mamlakatimiz so'nggi yillarda nufuzli va obro'li xalqaro tuzilmalar tomonidan tuziladigan Global innovatsion indeks reytingida ishtirok etmayotganligi, iqtisodiyot va ijtimoiy soha tarmoqlarining ilmiy muassasalar bilan o'zaro hamkorligi darajasi pastligi, vazirlik va idoralar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining innovatsion rivojlanish sohasidagi faoliyati lozim darajada muvofiqlashtiril- mayotganligi bu boradagi birinchi navbatdagi maqsadlar va vazifalarga erishish imkonini bermayotganligi qayd etilib, 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi, uni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi", O'zbekiston Respublikasini 2030 yilgacha innovatsion rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlandi.

Strategiyaga muvofiq O'zbekiston Respublikasini 2030 yilga borib Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning 50 ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish asosiy maqsadlardan biri etib belgilangan.

Albatta, bunday natijaga erishishda mamlakatimizda mavjud innovatsiya salohiyatidan samarali foydalanish, ta'lim sifati va qamrovini oshirish, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash, innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarga davlat va xususiy mablag'lar kiritilishini kuchaytirish, bu sohalaridagi tadbirlarni moliyalashtirishning zamonaviy va samarali shakllarini joriy etish kabi masalalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash lozimki, innovatsion sohaning yadrosi mamlakatimiz hududlarida faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish korxonalaridir. Ularning texnologik darajasi, mahsulotlarining raqobatbardoshligi, ishlab chiqarish samaradorligi, bozordagi o'rni, barqaror moliyaviy ahvoli bilimlarga, yangi texnologiyalarga, yangi mahsulotlarga, boshqarish usul va tartiblariga talabni belgilaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda innovatsion mahsulotlar, ishlar xizmatlar ishlab chiqarigan korxona va tashkilotlar soni 2010-2022 yillar davomida 7,5 barobarga ko'payib, 289 tadan 2171 taga etdi. Jumladan, birinchi marta innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar ishlab chiqarishni o'zlashtirgan korxonalar soni 1007 taga ko'paydi.

Shu bilan birga ta'kidlash lozimki, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishda mamlakatimizda katta hududiy tafovutlar mavjud. 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlarning asosiy qismi 5 ta hudud – Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Toshkent va Samarqand viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Xususan, 2016 yilda bu beshta hududning jami ko'rsatkichdagi ulushi 2016 yilda 89,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda bu hududlarning ulushi 90,8 foizga etdi. Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar asosan 5 ta hududda konsentratsiyalashgan bo'lib, 2016 yilda 6 ta, 2022 yilda 5 ta hududning ulushi 1 foizga ham etmadi.

1-jadval**O'zbekistonda 2016-2022 yillarda o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlarning hududiy tarkibi (%)**

Viloyatlar kesimida	2016 yil	2022 yil
Qoraqalpog'iston Respublikasi	18,3	21,2
Andijon	8,3	20,3
Buxoro	0,7	0,4
Jizzax	0,6	1,0
Qashqadaryo	1,9	0,8
Navoiy	0,7	1,5
Namangan	1,5	1,3
Samarqand	6,0	4,2

Surxondaryo	0,4	0,4
Sirdaryo	0,9	0,9
Toshkent	9,3	6,4
Farg'ona	2,6	2,2
Xorazm	0,7	0,7
Toshkent shahri	48	38,7

2017 yilda 975 ta korxona va tashkilotlar tomonidan 1946 turdagi texnologik innovatsiya joriy etildi. Bu innovatsiyalarning 61,6 foizi yoki 1198 tasi kichik va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ayni vaqtda bu erda ham katta hududiy tafovut kuzatiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, mamlakatimiz hududlarida innovatsion faoliyat uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining innovatsion rivojlanish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsiya faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalarning yarmidan ko'prog'ini ishlovchilar soni 500 kishidan ko'p bo'lgan korxonalar tashkil etadi. Bu albatta, tabiiy hol, chunki yirik salohiyat va moliyaviy mablag'larga ega bo'lgan korxonalar mustaqil ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarini olib borishlari, innovatsiya faoliyatini yuri- tishlari mumkin.

Mamlakatimiz hududlarida korxona uchun innovatsiya jarayonlarini faollashtirishda ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni mar- kazlashmagan holda tashkil etish muhim o'rin egallaydi. Bunda asosiy e'tibor qonunchi- likda belgilab berilgandek, o'z-o'zini tashkil etishga qaratilmog'i lozim. Bu esa korxonada tadqiqotchilar jamoasini tashkil etishni taqozo etadi.

Markazlashmagan boshqaruv tizimida shartnoma munosabatlari alohida ahamiyatga ega. Bu munosabatlar, odatda, buyurtmachi va ijrochi o'rtasida yuzaga keladi. Korxonada tashkil etilgan tadqiqot guruhi va korxona rahbariyati o'rtasida istiqbolli innovatsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha shartnoma imzolanadi. Bundan tashqari korxona va ilmiy-texnikaviy va ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari, ilmiy-sanoat uyushmalari va boshqa yirik markazlar ham innovatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha shartnoma imzolashlari mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, korxonalar tomonidan texnologik yangiliklarga bo'lgan talab ko'p jihatdan uning resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Moliyalashtirishning etarli darajada bo'lmasligi samarali innovatsiya loyihalarining amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiyotdagi umumiy innovatsiya faolligining pasayishiga olib keladi.

Innovatsiya sohasidagi stagnatsiya ko'p jihatdan davlat tomonidan innovatsiya sohasining etarli darajada qo'llab-quvvatlanmasligi bilan bog'liq. Shu sababli davlat innovatsiya siyosati yangiliklarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qartilmog'i lozim.

Davlatning innovatsiya siyosati davlatning ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatish usullari yig'indisidan iborat bo'lib, uning maqsadi yangi turdagi mahsulot va texnologiyalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, shuningdek, milliy tovarlarga xizmat ko'rsatish bozorlarini kengaytirishdan iborat.

Davlat innovatsiya siyosatining maqsadi va yo'nalishlari, eng avvalo, u yoki bu tarmoqning o'ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarish va iqtisodiy salohiyati hamda mazkur tarmoq asosiy mahsulotining raqobatbardoshlik darajasiga bog'liq.

Davlat innovatsiya siyosatining quyidagi asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- innovatsiya faoliyatining, uni amalga oshirish mexanizmining me'yoriy-huquqiy asoslarini ishlab chiqish va takomillashtirish;
- innovatsiya faoliyati, ishlab chiqarishni rivojlantirish, ilmtalab mahsulotlarning raqobatbardoshlik darajasi va eksporti hajmini oshirishni qo'llab-quvvatlash tizimini barpo etish;
- innovatsiya jarayonining infratuzilmasini, shu jumladan, axborot ta'minoti, ekspertiza, moliya-iqtisodiy, sertifikatsiya va ishlanmalarning bozorlarga kirib borish tizimini rivojlantirish;
- kichik korxona va tashkilotlarning innovatsion faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni barpo etish hamda ular faoliyatining dastlabki bosqichlarida davlat tomonidan yordam ko'rsatish yo'li bilan kichik innovatsiya tadbirkorligini rivojlantirish;
- innovatsiya loyihalari va dasturlarini konkurs asosida tanlash tizimini takomillashtirish.

Jahon amaliyotida innovatsiya faoliyatini amalga oshirish usullari ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi innovatsiya loyihalari va dasturlarini samarali tarzda amaliyotga joriy etishdan iborat.

Innovatsiya siyosatini amalga oshirishning asosiy usullari quyidagilardan iborat:

- innovatsiya sohasida ijobiy o'zgarishlarga erishish uchun qonuniy shart-sharoitlarni barpo etish (ya'ni qonunchilikda tegishli huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish ko'zda tutilgan bo'lishi lozim);
- ilmtalab, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga o'z mablag'larini kiritayotgan investorlarni, shuningdek, tashkilotlarni (innovatsiyalarni o'zlashtirish davrida) muayyan soliq imtiyozlarini kiritish, davlat kafolatlari va kreditlar hisobidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;
- innovatsiya faoliyatini yuritish uchun qulay sharoitlarni barpo etish maqsadida soliq tizimini takomillashtirish;
- milliy mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni tashqi bozorda sotish bo'yicha qo'shma korxonalar barpo etish, milliy innovatsiyalarni xorijda keng targ'ib qilishni ta'minlash, innovatsiya loyihalari bo'yicha axborot almashinuvi uchun xalqaro axborot tizimlariga kirib borish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- eng yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish maqsadida innovatsiya loyihalarini davlat kafolati ostida amalga oshirishni ko'zda tutib, uskunalarni,

texnologiyalarga litsenziyalar va nou-xaularni sotib olish, innovatsiya infratuzilmasini rivojlantirish uchun xorijiy kredit liniyalarida kvotalarni ta'minlash;

- Yevropa Ittifoqi, MDHga a'zo mamlakatlar, shuningdek, boshqa mamlakatlar bilan o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan davlat hokimiyati organlari va xususiy investorlar sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish;

- ilmtalab uskunalar lizingini rivojlantirish;

- innovatsiya nuqtai nazaridan faol tashkilot va korxonalarni xalqaro konkurslarda ishtirokini ta'minlash;

- umummilliy xarakterga ega bo'lgan, ammo xususiy korxonalar uchun jozibador bo'lmagan innovatsiya loyihalarini amalga oshirish uchun davlat investitsiyalarini ajratish va h.k.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, innovatsion iqtisodiyot murakkab mexanizm bo'lib, unda texnologik innovatsiyalar, raqamli transformatsiyalar, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda kichik va o'rta korxonalarining faol ishtiroki muhim o'rin tutadi. Shularni hisobga olgan holda quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

-Texnologik innovatsiyalar va raqamli transformatsiya zamonaviy iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, hozirgi tendensiyalarni belgilab beradi va rivojlanish istiqbollari shakllantiradi.

-Innovatsiyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash innovatsiyalar uchun qulay muhit yaratishda muhim rol o'ynaydi, samarali siyosat va chora-tadbirlarni talab qiladi.

-Kichik va o'rta korxonalar innovatsion jarayonlarda faol ishtirok etib, iqtisodiy xilma-xillikni rag'batlantiradi va o'sishni rag'batlantiradi.

Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish davlat, biznes va jamiyatning kelishilgan harakatlarini talab qiluvchi murakkab jarayondir. Faqatgina birgalikdagi sa'y-harakatlar va strategiyalar barqaror va innovatsion kelajakka erishadi. Texnologiyani faol tatbiq etish, tegishli davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va biznesning barcha darajadagi ishtiroki muvaffaqiyatning asosiy komponentlari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 oktyabrda "Fermar, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalariining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5199-sonli farmoni.

2. Abulqosimov H.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. O'quv qo'llanma.-T.: Akademiya, 2012.-161-162-bet.

3. Umarov, Tursunboy Sayfiddin o'g'li (2024) Korrelyatsiya koeffitsientini statistik baholash. Analytical Journal of Education and Development, 4 (5). pp. 413-415. ISSN 2181-2624

4. [Tadbirkorlik faoliyatida loyixaviy boshqaruvni rivojlantirish tendensiyalari va istiqbollari](#) Y. Nematillo "PEDAGOGS" international research journal 59 (Issue-1), 202-207

5. Shukurullaevna, B. S. (2023). Management system for the effective use of labor potential in the development of integration processes. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 466-473.

6. Qahhorov, S. (2023). Soliq siyosatini iqtisodiy faollikka yo 'naltirilgan mexanizmlarini takomillashtirish. Educational Research in Universal Sciences, 2(14), 261-263.

7. Davidova D. T. Sug'urtada axborot kommunikatsiya texnologiyalari va ulardan foydalanish mezonlari //models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2023. – T. 2. – №. 23. – S. 56-62.

8. Mamayev B.N. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda raqamli marketing elementidan biri internet-reklamadan foydalanishning tendensiyalari [vol. 1 no. 8 \(2022\): O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali](#) /

9. Mamayev B.N. O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini ta'minlashning o'ziga xos jihatlari, International scientific journal "Interpretation and researches" Volume 1 issue 20 | ISSN: 2181-4163 | UIF-2023: 8.2

10. Mamayev , B. N. (2023). O'zbekiston baliq sanoatini rivojlantirishda klasterlash. Educational Research in Universal Sciences, 2(14), 693–700. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4511>